



BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH ORQALI AKTIVLAR  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

**Muminov Bekzod Polvonovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
ORCID: 0009-0007-0305-1339  
[begzod81@gmail.com](mailto:begzod81@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot banklarni transformatsiya qilish jarayonlari orqali aktivlar samaradorligini oshirish usullarini o'rGANADI. Banklar iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish va raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun transformatsiya jarayonlarini amalga oshirishlari zarur. Tadqiqotda banklarning transformatsiya jarayonlari, ularning samaradorligi va moliyaviy ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** bank transformatsiyasi, aktivlar samaradorligi, moliyaviy ko'rsatkichlar, raqobatbardoshlik, iqtisodiy o'zgarishlar.

**МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ АКТИВОВ  
ПУТЕМ БАНКОВСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

**Муминов Бекзод Полвонович**  
Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В данном исследовании рассматриваются способы повышения эффективности активов посредством процессов трансформации банков. Банкам необходимо реализовать процессы трансформации, чтобы адаптироваться к экономическим изменениям и сохранить свою конкурентоспособность. В исследовании анализируется взаимосвязь процессов трансформации банков, их эффективности и финансовых показателей.

**Ключевые слова:** трансформация банка, эффективность активов, финансовые показатели, конкурентоспособность, экономические изменения.

**METHODS OF INCREASING ASSET EFFICIENCY THROUGH BANKS  
TRANSFORMATION**

**Muminov Bekzod Polvonovich**  
Tashkent State University of Economics

**Abstract.** This research examines ways to improve asset performance through bank transformation processes. Banks need to implement transformation processes in order to adapt to economic changes and maintain their competitiveness. The study analyzes the relationship between transformation processes of banks, their efficiency and financial indicators.

**Keywords:** bank transformation, asset efficiency, financial indicators, competitiveness, economic changes.

### Kirish.

Bugungi kunda bank tizimini transformatsiya qilish iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy samaradorlikni oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Global miqyosda bank sektorining rivojlanishi raqamli texnologiyalar, innovatsion moliyaviy mahsulotlar va avtomatlashtirilgan boshqaruva tizimlarini joriy etish bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston bank tizimi ham jadal transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda, bu esa tijorat banklarining aktivlar samaradorligini oshirish va moliyaviy xizmatlarning sifatini yaxshilashni talab etadi. Bank aktivlarining samaradorligini oshirishda transformatsiya jarayonlarining o'rni katta bo'lib, bunda asosiy urg'u raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va kapital resurslaridan samarali foydalanishga qaratiladi. Bank tizimidagi innovatsion o'zgarishlar nafaqat ichki boshqaruva samaradorligini oshirish, balki iqtisodiy rivojlanishga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Banklar iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning faoliyati mamlakatning moliyaviy barqarorligi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda banklar raqobatbardoshligini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida transformatsiya jarayonlarini amalga oshirishga majbur. Ushbu tadqiqotda banklarni transformatsiya qilish orqali aktivlar samaradorligini oshirish usullari o'rganiladi.

### Adabiyotlar sharhi.

Banklarni transformatsiya qilish orqali aktivlar samaradorligini oshirish masalasi xalqaro va mahalliy iqtisodiyotda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Maqolada ham xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari, nazariy yondashuvlari hamda ularning asosiy fikrlari batafsil tahlil qilinadi.

Xorijiy olimlarning tadqiqotlari va ularning tahlili natijasini aytib o'tadigan bo'lsak Bank transformatsiyasi va raqamli texnologiyalarni tahlil qilgan olim Mishkin (2016) The Economics of Money, Banking, and Financial Markets nomli o'z tadqiqotlarida banklarning transformatsiya jarayonlari va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qilgan. Unga ko'ra, bank tizimini modernizatsiya qilish jarayoni kapital samaradorligini oshirish va risklarni minimallashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

Levine R. Financial Development and Economic Growth nomli o'z ishida bank tizimi rivojlanishi va fond bozori orqali kapital jalg qilish imkoniyatlarini baholagan. Uning fikriga ko'ra, transformatsiya jarayonlari fond bozoriga integratsiya orqali yanada samarali kichadi (Schumpeter, 1934).

Claessens va Laeven (2006) Financial Development, Property Rights, and Growth, raqamli transformatsiyaning banklarning kreditlash faoliyatiga ta'sirini o'rgangan. Ularning fikriga ko'ra, bank tizimini transformatsiya qilishning asosiy omillaridan biri moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etishdir.

Bank aktivlarining samaradorligini oshirish usullari bo'yicha esa Berger A.N. va Humphrey D.B. Efficiency of Financial Institutions: International Survey and Directions for Future Research nomli tadqiqotlarida banklar faoliyatining samaradorligini oshirish uchun texnologik modernizatsiya va fond bozori bilan integratsiyani muhim omillar sifatida keltiradi.

Allen va Gale (2000) Comparing Financial Systems bank tizimlarining turli modellari bo'yicha tadqiqot o'tkazib, aktivlar samaradorligini oshirishda fond bozorining roli katta ekanligini ta'kidlaydi. King va Levine (2006)lar kapital samaradorligini oshirish jarayonida bank tizimining transformatsiya qilinishi iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanligini ilmiy asoslab bergen.

Transformatsiya jarayonlarida fond bozorining o'rni bo'yicha quyidagi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Schumpeter (1934) (The Theory of Economic Development, 1934) o'z tadqiqotlarida innovatsion rivojlanish va fond bozorining iqtisodiy o'sishdagi rolini o'rgangan. Beck, Demirci-Kunt, Levine (1993) (Bank Supervision and Corruption in Lending,

2006) banklarning kapital jalb qilish strategiyalarini samarali amalga oshirish uchun fond bozorining shaffofligi va institutsional rivojlanishi muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Shu bilan birga respublikamiz mahalliy olimlari tomonidan ham tadqiqotlar olib borilgan. Banklarning transformatsiyasi va iqtisodiy samaradorlik bo'yicha Islomov S. (O'zbekiston bank-moliya tizimining transformatsiya jarayonlari va istiqbollari, 2021) o'z tadqiqotida tijorat banklarining raqamli iqtisodiy muhitga moslashuvi va transformatsiyaga bog'liq ravishda ularning iqtisodiy samaradorligi oshishini tahlil qilgan.

Abdukarimov (2020, 2019) O'zbekiston bank tizimidagi islohotlar va ularning samaradorlikka ta'sirini o'rgangan. U fond bozoridagi ishtirokni kengaytirish orqali aktivlarni samarali boshqarish mexanizmlarini taklif qiladi.

Nuraliev (2020) tadqiqotida banklarni transformatsiya qilishda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyatini baholaydi.

Raqamli texnologiyalar va bank tizimi modernizatsiyasi bo'yicha Xudoyberganov (O'zbekiston bank tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni va istiqbollari, 2021) tadqiqotida banklarning raqamli transformatsiya orqali o'z xizmatlarining samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'rgangan.

Saidov (O'zbekiston moliyaviy tizimining rivojlanish yo'nalishlari, 2020) O'zbekiston bank tizimining zamonaviy rivojlanish jarayonlarini tahlil qilib, transformatsiyaning strategik yo'nalishlari va fond bozoridagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha tavsiyalar bergan.

Karimov (O'zbekistonda bank tizimining investitsion faolligini oshirish omillari, 2022) tijorat banklarining aktivlar samaradorligini oshirish uchun fond bozori bilan integratsiyasini taklif qilgan.

Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, banklarni transformatsiya qilish jarayoni aktivlar samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlar ko'proq banklarning fond bozori va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasiga e'tibor qaratadi, mahalliy tadqiqotlar esa O'zbekiston bank tizimidagi islohotlar va ularning samaradorlikka ta'sirini tahlil qiladi. Bank aktivlarini samarali boshqarish uchun transformatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, fond bozorida faollikni oshirish va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash muhim strategik yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Banklarni transformatsiya qilish orqali aktivlar samaradorligini oshirish iqtisodiy omillarni tahlil qilishning turli metodlarini talab qiladi. Ushbu tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Nazariy-tahliliy yondashuv metod orqali tadqiqotning dastlabki bosqichida bank transformatsiyasi va aktivlar samaradorligini oshirishga oid ilmiy adabiyotlar, milliy va xorijiy tadqiqotchilarining asarlari, iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalari tahlil qilindi. Xususan:

- bank tizimining transformatsiyasi bo'yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotlar o'rganildi;
- bank aktivlarining samaradorligi bo'yicha asosiy ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlil qilindi;
- fond bozorining bank sektori rivojlanishiga ta'siri o'rganildi. Bu metod bank tizimidagi transformatsiya jarayonlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini keng ko'lamma tushunishga imkon berdi.

Empirik tadqiqot usullari orqali esa banklarning aktivlarini samarali boshqarish bo'yicha real holatni tahlil qilish uchun empirik usullardan foydalanildi.

Statistik tahlil – O'zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi bank tizimi bo'yicha statistik ma'lumotlar yig'ilib, ularning o'zgarish dinamikasi baholandi. Eksperimental tahlil – Tijorat banklarining fond bozoridagi faolligi va aktivlar samaradorligiga ta'siri o'rganildi. Korelyatsion tahlil – Banklarning aktivlari va ularning transformatsiya jarayoni o'rtasidagi bog'liqlik statistik usullar bilan baholandi. Taqqoslash va benchmarking O'zbekiston bank tizimi rivojlanishi va uning transformatsiya jarayonlari xorijiy davlatlar tajribasi bilan taqqoslab o'rganildi.

- Amerika, Yevropa va Osiyo bank tizimlarining transformatsiya jarayonlari tahlil qilindi
- O'zbekiston bank tizimining xorijiy tajribadan farqli jihatlari va o'xshashliklari aniqlab berildi
- Eng samarali yondashuvlar aniqlanib, O'zbekiston banklari uchun tavsiyalar ishlab chiqildi

Matematik-modellashtirish va prognozlash orqali tadqiqot davomida bank transformatsiyasining keljakdagi rivojlanish dinamikasini tahlil qilish uchun quyidagi usullar qo'llanildi:

- ekonometrik modellashtirish – Bank aktivlarining samaradorligi bilan bog'liq asosiy iqtisodiy omillar o'rganildi.
- prognozlash usuli – Banklarning transformatsiya jarayonlari natijasida keljakda aktivlar samaradorligi qanday o'zgarishi bashorat qilindi.
- moliyaviy risklarni baholash – Bank transformatsiyasi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy tavakkalchiliklar aniqlanib, ularni minimallashtirish yo'llari ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli va integratsiyalashgan yondashuv asosida shakllantirildi. Banklarni transformatsiya qilish orqali aktivlar samaradorligini oshirish masalasi iqtisodiy, statistik, empirik va prognozlash usullari orqali kompleks ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar bank tizimini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish va fond bozoridagi faollikni oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O'zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi banklar tajribasi, transformatsiya jarayonlarining muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz misollari keltiriladi. Shuningdek, banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari va ularning samaradorligi o'rtaqidagi bog'liqlik o'rganiladi. Bank transformatsiyasi — bu banklarning o'z faoliyatini yangilash, modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish jarayonidir. Adabiyotlarda bank transformatsiyasining asosiy sabablari sifatida iqtisodiy o'zgarishlar, raqobatning kuchayishi va mijozlar talablarining o'zgarishi ko'rsatiladi.

Aktivlar samaradorligi — bu bankning o'z aktivlaridan qanday samarali foydalanayotganini ko'rsatadigan ko'rsatkichdir. Shuningdek, aktivlar samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar va raqamli transformatsiyaning ahamiyatli hisoblanadi. Banklarni transformatsiya qilish jarayonlarining aktivlar samaradorligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Transformatsiya jarayonlari orqali banklar o'z faoliyatini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bank tizimini transformatsiya qilish orqali aktivlar samaradorligini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot davomida bank sektorining transformatsiya jarayonlari, iqtisodiy omillarning bank aktivlari samaradorligiga ta'siri, fond bozoridagi ishtiroy darajasi hamda raqamli texnologiyalar integratsiyasining natijalari tahlil qilindi.

1. Bank tizimining transformatsiya jarayonlari va ularning samaradorlikka ta'siri. Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatida transformatsiya jarayonlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonning asosiy omillari quyidagilardan iborat:

- Raqamli texnologiyalarni joriy etish – Bank xizmatlarining avtomatlashtirilishi, mijozlarga onlayn xizmat ko'rsatish imkoniyatlarining kengayishi.
- Xalqaro moliyaviy integratsiya – Banklarning global moliyaviy bozorga chiqishi va xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kuchaytirishi.
- Innovatsion mahsulot va xizmatlar – Fintex kompaniyalari bilan hamkorlik orqali yangi moliyaviy mahsulotlarni joriy etish.

Transformatsiya jarayonlari natijasida bank tizimining samaradorligi oshmoqda. Xususan, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning tezkorligi, bank operatsiyalarining shaffofligi va kredit portfeli boshqaruvi yaxshilanmoqda.

## 2. Bank aktivlari samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar

Bank aktivlarining samaradorligi bevosita ichki va tashqi iqtisodiy omillarga bog'liq. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi omillar eng asosiy ta'sir kuchiga egaligi aniqlandi:

- Makroiqtisodiy omillar – Inflyatsiya darajasi, milliy valyuta kursining barqarorligi, iqtisodiy o'sish sur'atlari bank aktivlari samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

- Moliya bozorining rivojlanish darajasi – Kapital bozori va fond bozori rivojlangan davlatlarda banklarning aktiv samaradorligi yuqori bo'lishi kuzatilmoxda.

- Bankning risklarni boshqarish strategiyasi – Sarmoyaviy xavflarni minimallashtirish orqali bank aktivlari daromadliligini oshirish imkonini yaratiladi. Banklar transformatsiya jarayonlarida ushbu iqtisodiy omillarning har biriga mos strategik qarorlar qabul qilishlari lozim.

## 3. Fond bozorida banklarning faolligini oshirish yo'nalishlari

Bank tizimini transformatsiya qilish orqali aktivlar samaradorligini oshirish uchun fond bozoridagi ishtirok muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari fond bozori orqali quyidagi ustunliklarga ega bo'lmoqda:

1. Qo'shimcha investitsiya jalg qilish – Banklarning fond bozorida qimmatli qog'ozlar chiqarishi orqali kapital yetishmovchiligi muammosi bartaraf etiladi.

2. Diversifikatsiyalash orqali risklarni kamaytirish – Banklarning turli xil moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

3. Likvidlikni oshirish – Fond bozoridagi faol ishtirok banklarning likvidligini oshirib, mijozlar oldidagi majburiyatlarini tezkor bajarish imkonini beradi.

O'zbekiston tijorat banklarining fond bozoridagi ishtirokini oshirish uchun xorijiy tajribaga asoslangan strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

## 4. Raqamli transformatsiyaning bank aktivlari samaradorligiga ta'siri

Raqamli texnologiyalarning bank faoliyatiga integratsiyalashuvni transformatsiya jarayonlarining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

- Blokcheyn texnologiyasining joriy etilishi – Bank operatsiyalarining shaffofligini ta'minlaydi va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi.

- Sun'iy intellekt asosidagi risklarni boshqarish tizimi – Kredit portfelini optimallashtirish, mijozlarning to'lov qobiliyatini tahlil qilish samaradorligini oshiradi.

- Big Data va analitika – Mijozlarning ehtiyojarini aniq prognozlash va personalizatsiyalangan xizmatlarni taklif etish imkonini beradi.

O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish orqali bank aktivlarining daromadliligini oshirishga erishish mumkin.

## 5. SWOT-tahlil asosida natijalar

Tadqiqot natijalari SWOT-tahlil asosida baholandi:

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish	Moliyaviy risklarni boshqarish darajasi pastligi
Xorijiy sarmoyalarni jalg qilish imkoniyati	Bank xizmatlarining diversifikatsiya darajasi pastligi
Fond bozoridagi ishtirokni kengaytirish	Kredit portfelining yuqori risk darajasi
Imkoniyatlar	Tahdidlar
Fintex va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish	Xalqaro moliyaviy inqiroz ta'siri
Yangi investitsiya oqimlarini jalg qilish	Bank tizimining yetarli darajada transformatsiyalanmaganligi
Kapital bozoridagi faollikni oshirish	Kiberxavfsizlik tahdidlari

Natijalar shuni ko'rsatadiki, bank tizimini transformatsiya qilish orqali aktivlar samaradorligini oshirish uchun mavjud zaif tomonlar bartaraf etilib, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish lozim.

1. Bank tizimining transformatsiyasi bank aktivlari samaradorligini oshirishning eng muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bank operatsiyalarining raqamlashtirilishi, fond bozoridagi ishtirokini kengaytirish va risklarni samarali boshqarish orqali moliyaviy barqarorlik ta'minlanadi.

2. Iqtisodiy omillar bank aktivlari samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya, valyuta kursining barqarorligi, kapital bozori rivojlanishi kabi omillar bank sektorining samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi.

3. Raqamli texnologiyalarni joriy etish banklarning transformatsiya jarayonida muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt, Big Data, blokcheyn texnologiyalari mijozlar bilan ishslash samaradorligini oshiradi va operatsion xarajatlarni kamaytiradi.

4. Fond bozorida banklarning faolligini oshirish orqali kapital yetishmovchiligi muammosi hal qilinishi mumkin. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, banklar fond bozoridagi ishtirok orqali likvidligini oshirishi va investitsion salohiyatini kengaytirishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston bank tizimi uchun quyidagi takliflar beriladi:

- Banklar faoliyatiga ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish.
- Tijorat banklarining fond bozoridagi ishtirokini oshirish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlash.
- Bank aktivlari samaradorligini oshirish maqsadida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish.
- Raqamli transformatsiya bo'yicha xalqaro tajribani chuqur o'rganish va moslashtirish.

### **Xulosa va takliflar.**

Bank tizimini transformatsiya qilish orqali aktivlar samaradorligini oshirish iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish, aktivlarni boshqarish tizimining takomillashtirilishi va fond bozoridagi faol ishtirok banklarning likvidligi va rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Banklarni transformatsiya qilish jarayoni nafaqat ichki tizimlarni optimallashtirish, balki xalqaro standartlarga mos keladigan strategiyalarni ishlab chiqishni ham talab qiladi. Zamonaviy tendensiyalar banklarning investitsion portfellarini diversifikatsiya qilish, aktivlarni samarali boshqarish hamda risklarni minimallashtirish zarurligini ta'kidlamoqda.

O'zbekiston tijorat banklari faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat banklar transformatsiya jarayonlarini amalga oshirishda raqamli xizmatlarni joriy etish, blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish va aktivlarni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali boshqarish yo'nalishida ishlarmoqda. Shu bilan birga, aktivlarni samarador boshqarishning xalqaro tajribasini o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish masalalari hali ham dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, banklarni transformatsiya qilish jarayonlari aktivlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Banklarga quyidagi takliflar beriladi:

- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish.
- Mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish.
- Xodimlar malakasini oshirish va ularni motivatsiya qilish.

### **Adabiyotlar/ Йумерампур/ Reference:**

Abdukarimov I. (2020). *Bank tizimining transformatsiyasi va raqamli moliyaviy xizmatlar*. Tashkent: Iqtisodiyot va moliya.

Abdukarimov I., & Raximov M. (2019). *O'zbekistonda bank sektorini modernizatsiya qilish va rivojlantirish masalalari*. Tashkent: Moliya.

Allen, F., & Gale, D. (2000). *Comparing Financial Systems*. MIT Press.

- Bikker, J.A., & Hu, H. (2002). *Cyclical Patterns in Profits, Provisioning and Lending of Banks and Procyclicality of the New Basel Capital Requirements*. *BNL Quarterly Review*, 221, 143–175.
- Bo'ronov X., & Norqobilov A. (2018). *O'zbekiston bank tizimining investitsion faolligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, 4(3), 45–58.
- Diamond, D.W., & Dybvig, P.H. (1983). *Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity*. *Journal of Political Economy*, 91(3), 401–419.
- Karimov I.A. (2011). *O'zbekiston mustaqillikka erishish yo'lida*. Tashkent: O'zbekiston.
- King, R.G., & Levine, R. (1993). *Finance and Growth: Schumpeter Might Be Right*. *The Quarterly Journal of Economics*, 108(3), 717–737.
- Klapper, L., Laeven, L., & Rajan, R. (2006). *Entry Regulation as a Barrier to Entrepreneurship*. *Journal of Financial Economics*, 82(3), 591–629.
- Mishkin, F.S. (2016). *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. Pearson, 12th Edition.
- Nuraliev I. (2020) *Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining investitsion siyosati. Iqtisodchi nashriyoti*.
- Schumpeter, J.A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.
- Usmonov R., & Tursunov S. (2022). *Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank faoliyatini modernizatsiya qilish masalalari*. Tashkent: Fan va texnologiya.
- Yusupov O. (2021). *Tijorat banklarining fond bozoridagi ishtiroki va uni kengaytirish imkoniyatlari*. Bank va moliya ilmiy jurnali, 5(2), 67–79.